



“DAHSHAT” NI YANGICHA O’QISH TAJRIBASI¹

Mirzayeva Zulxumor Inomovna

Toshkent davlat O‘zbek tili va
adabiyoti universiteti, f.f.d., professor
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17382906>

Kitobxon javobi o‘tgan asrning 1960-70-yillarda paydo bo‘lgan zamonaviy adabiyotshunoslikdagi muhim nazariylardan biri bo‘lib, kitobxon va matn munosabatiga asoslanadi. O‘quvchi tafakkuri, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holati badiiy matnning “yozilmagan qism” larini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunda badiiy asar yuzasidagi ma’no(lar) yoki muallifning badiiy-g‘oyaviy konsepsiyasi emas balki badiiy asarning o‘quvchi tuygulari, emotsional holatiga ta’siri, kechimlaridan hosil bo‘lgan individual xulosalar kashf qilinadi.

Adabiyotshunos olim Abdug‘afur Rasulovning “O‘zlashtirish estetikasi ajoyibotlari” ilmiy-adabiy maqolasida badiiy asar tabiatida kitobxon(o‘quvchi) uchun ajratilgan o‘rin xususida fikr yuritib, Yevropa va rus estetikasida paydo bo‘lgan retseptiv estetikani yangi soha deb baholab, o‘zlashtirish, qabul qilish estetikasi istilohi bilan atagan. “Yozuvchi badiiy matnda o‘z g‘oyasini, qarashlarini aks ettiradi. Kitobxon badiiy matnni o‘zlashtirar, unga munosabatini bildirar ekan, matn taqdiri hal bo‘ladi. Uning badiiy asar sifatidagi mustaqil yo‘li boshlanadi yoxud badiiy asar sifatida inkor qilinadi” [Rasulov, 2007: 97]

Nemis olimi Wolf Gang Iser o‘zlashtirish estetikasida matn strukturasi va strukturaviy faoliyat muhimligini qayd etadi. [Wolfnag, 1978]. Ya’ni, Volfang badiiy asarning shakliy tuzilmasi kitobxonni o‘qishga undaydigan muhim omil deb hisoblaydi. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasini o‘qishga tayyorlanayotgan kitobxon asar sarlavhasining o‘zidayoq matn bilan munosabatga kirishadi. Hikoya sarlavhasi, vizual fikrlash (‘gestalt’- «визуального мышления») asosida dastlabki farazlarini, fikr qarashlarini, yaratadi.

Ma’lumki, “dahshat” (inglizcha “terror”) so’zi mohiyatan kishida salbiy tasavvurlarni uyg‘otadi. Ayrim mutaxassislar bu so‘z retorik konnotatsiya (o‘quvchi yoki tinglovchi ongiga, tuyg‘ulariga kuchli ta’sir etuvchi xususiyat) ga ega so‘z ekanligini taxmin qiladilar. Chindan ham kitobxon “dahshat” da qandaydur fojeaning aks etishi, asar yoqimsiz xotima bilan yakun topishini his qiladi, o‘quvchiga og‘ir, tushkun kayfiyat beradi. Ammo bu fojealar qanday, qay

¹ 2021-2022-yillarda Xaqlaro ta’lim dasturidan g‘olib bo‘lib olti oy mobaynida Amerika Qo‘shma Shtatlarining Arkanzas universitetida malaka oshirdim va 3-kurs talabalariga qiyosiy adabiyotshunoslik fanidan ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar olib bordim. Abdulla Qahhorning “Dahshat” (inglizcha “Horror”) hikoyasini o‘tayotganimda bir amerikalik talaba “oddiy kitobxon sifatida Dodhoni oqlay olasizmi?” degan savol bilan murojaat qildi. O‘zbek adabiyotshunosligida mavjud bo‘lmagan bunday noodatiy qarash mazkur maqolani yozishga rag‘bat berdi.

tartibda, kimning taqdirida yuz berishini ochiqlash ishtiyoqi kitobxonda asarni teziroq o'qishiga undaydi. Asarning ilk jumlaridagi kuzak shamoli tasviri retsipentdagi qo'rquvni, dashshatni yanada oshiradi. Endi o'quvchi shamolning "yaydoq daraxtlar shoxida chiyillashini, "tomlarda vishillashini", "yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortishi" ni his qilibgina qolmay uni eshita boshlaydi. Real hayotida sodir bo'lgan dahshatlarni o'tmish fonida qayta tahlil qiladi, baholaydi.

"Dahshat" da ham mazmun ochiq ifoda etilmaydi, fikrlar poetik obrazlarga, tasvirlarga singdiriladi. Kitobxon bu tasvirlarni konkretlashtirish, aniqlashtirish orqali asardagi bo'shliqlarni, yozuvchi matn tagzaminiga yashirgan ma'nolarni yuzaga chiqaradi, matnni qayta yaratishga kirishadi.

Hikoyadagi kuzak shamoli tasviri kitobxondagi qo'rquvni, vahimani yanada oshirishi, asarga og'ir kayfiyat berishi bilan bir qatorda uning "chiyillashi", "vishillashi", "uf" tortishi orqali asar qahramonining halokatli taqdiri, uni qandaydur qiyinchiliklar, to'siqlar, murakkabliklarga duch kelishiga ishora qiladi. Chunki shamol tabiatida "buzuvchilik", "vayron qilishlik", "halok qilishlik" xususiyati mavjud.

Hikoyadagi o'quvchi e'tiborini tortadigan keyingi atribut bu-kuz fasli. Nega qish emas?! Qish ham badiiy ijodda aksar holatlarda baxtsizlik, o'lim, tushkunlikka ishora, qahramonning o'limi, umidsizlik hamda muvaffaqiyatsizlik ramzi sifatida taqlin qilinadi. Masalan, Cho'lponning "Ko'klam qayg'usi", "Yana qor" she'rlarini eslaylik. O'zbek adabiyotida bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Jahon adabiyotida ham qish kuchli tahdid, yengib bo'lmaydigan yov, kuchli raqib, hissiz inson va oxiriga yetayotgan umr sifatida taqlin qilingan holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, Shotland shoiri Andrey Yang (inglizcha Andrey Young, 1885-1971) qalamiga mansub, jahonning eng sara she'rlari qatoriga kiritilgan (the best poems of the world) "Shavqatsiz ayoz" (The Hard Frost) da ham qish fasli salbiy bo'yoqlarda akslantirilgan. Ayni o'rinda Xans Kristian Andersonning "Qor malikasi" klassikasida qishning ramzlardagi salbiy mohiyati aks etgan eng yaxshi namunasi sifatida ko'rsatish mumkin. Demak, Qahorning "Dahshat" hikoyasida kuz voqea dahshatini quyushtirishdan tashqari kitobxonda boshqa fikr mulohazalarga ham rag'bat berishi mumkin.

Yil fasllari badiiy adabiyotda turli xil ramziy ma'nolarni ifodalaydi², ijodkorlar ham asarning badiiy-g'oyaviy maqsadidan kelib chiqib, ulardan badiiy vosita sifatida foydalanadilar. Jumladan, yozuvchi kuz fasliga ramziy ma'nolarni individual qarashi, e'tiqodi, ifoda uslubi, milliy an'analar, tutumlar, badiiy asar g'oyasi, diniy-madaniy kontekstdan kelib

² <https://www.twinkl.co.uk/teaching-wiki/the-seasons-significant-in-literature>

chiqib yuklaydi. Holbuki, ramziy ifodalarga munosabat sub'ektiv va talqin turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim ijodkorlar kuzdan yoqimsiz o'zgarishlar mavsumi sifatida foydalanadilar. Kuz asar qahramonining kelajagida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan og'ir vaziyatlarga tayyor turishi, qahramon qabul qilgan qarorning yoqimsiz, halokatli oqibatlar kutayotganidan dalolatligini ko'rsatadi. Kuz yo'qotish, ayriliq, judolik, parchalanish ramzi bo'lganligi uchun ham asar qahramonlarining o'limiga doir fojealar, dahshatlar aksar holatlarda badiiy adabiyotda kuzda sodir bo'ladi.

Demak, "Dahshat" dagi kuz tasviri, kuzak shamoli kitobxonlarda faqat assosatsiya uyg'otuvchi vosita sifatida emas balki yaqin kelajakda hikoya qahramoni taqdirida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan haloklatlar haqidagi bashoratlarga ham turtki beradi. Aslida ham "Payg'ambar yoshidan o'tib ketgan" cholga sakkizinchi xotin bo'lib majburan uzatilgan Unsinning hayotida qandaydur yoqimsiz o'zgarishlar, baxtsizlik sodir bo'lishi tayin edi.

"Dahshat" dagi g'oyalar har bir yangi jamiyat, ijtimoiy- siyosiy tuzum, bugungi kun uchun ham noodatiy mulohazalarni keltirib chiqaraveradi. Masalan, kitobxon (zamonaviy kitobxonning, ta'kid bizniki, ZM) javobi nazariyasi va Iserning dinamik o'qish haqidagi g'oyasi Unsinning erk uchun hayotini garovga qo'yib, og'ir shartni bajarishi bilan bog'liq voqelikni silliq qabul qilishiga halal beradi. Chunonchi, insonlardagi "omon qolish" instinkti insonni har doim yashashga undaydi. Mana shu instnikt insonni har qanday fojeaviy holatlarda ham o'limdan qochishiga, nafas olishiga majbur qiladi. Ayni paytda Unsinning jasorat bilan og'ir shartga rozi bo'lishini dalillovchi qator sabablar mavjudligini ham inkor qilmaymiz. Aytaylik go'zal, qalbi orzu umidlarga to'la Unsin qatoridagi har qanday qizning payg'ambar yoshidagi cholga turmushga chiqishi; oddiy odamlar tabiatida erkinlikka, erkin yashashga intilish kuchliroq bo'lganligi uchun ular aksar holatlarda o'limdan ozodlikni afzal ko'rish ham tajribadan o'tgan haqiqatlardan biri. Unsin sakkiz oy mobaynida Olimbek dodhoga itoatda yashab kelayotgan bo'lsa ham ruhiyatida zulmga qarshi isyoni bor edi, uni yuzaga chiqarish uchun sabab yo'q edi, xolos. Shuning uchun ham u qabristonga borib, choy damlab kelish dahshatidan cho'chimadi; Matyoqub Qo'shjonov aytganidek, bu dahshatga rozi bo'lgan qizning botinidagi kulfatlar qo'rqinchli shartni bajarishdan ko'p barobar dahshatliroq bo'lgani uchun ham qiz shartga rozi bo'ladi. Ammo bu sabablar kitobxonni badiiy asar yaratilgan davrdagi tarixiy, ijtimoiy vaziyat nuqtai nazaridan qoniqtirishi, zamonaviy o'quvchi matndagi ayrim dalillarga tayanib, hatto Unsinning fojeasida Dodhoni ayblamasligi ham mumkin. Masalan, Unsin Dodhoning kenja, suyuqli xotini. Unsin Dodhoga ota-onasining qistovi (majburlashi) bilan turmushga chiqqan bo'lsada besh oy muddatda xonadon sharoyitiga ko'nikkan,

taqdiriga tan berib, turmush o'rtog'iga so'ssiz itoatda umr kechirayotgan edi. Agar Nodirmohbegim rahmatli otasi aytib bergan hikoyani qo'zg'amaganda, Unsin dodhoning g'ashiga tegadigan gap aytmaganida, ehtimol, Unsin yana avvalgidek yashashda davom etishi, yosh joniga jabr qilmasligi mumkin edi. Qabristonga borish fikri ham Unsinning o'zidan chiqdi. Uni Dodho majburlamadi. Oddiy tegirmonchining qizi Unsinning jasorat va ayni o'rinda bepisandlik bilan "o'lsin, nokas odam ekan, bitta qo'yni deb...Koshki arziydigan narsa bo'lsa" degan gapi go'riston vahimasidan dahshatga tushib, "tiligacha sovuq ter chiqqan", jamiyatda anchayin "obro' e'tibor" ga ega Dodhoning g'ururiga tekkan edi. Unsinning o'nta qo'yni rad etib, uning erkinlik so'rashi, "bir gadovachchaning bu dargohdan ketishga oshiqishi" ni esa Dodho naqd haqorat deb qabul qildi. U ayni paytda Unsinni qamchi bilan jazolab, "esini kiritib qo'yishi" ham mumkin edi, lekin boshqa xotinlari oldida obro'siga soya solgan Unsin uchun bunday jazo, Dodho nazdida yetarli emasdi, qolaversa, g'ururini bu tarzda himoya qilishni ham o'ziga ravo ko'rmadi va zaharxanda muloyimlik bilan Unsin shartiga rozi bo'ldi. Lafz uchun unga bir taloqni ham berib bo'lgandi. Ayni damda kitobxonda Dodhoning hayolidan nimalar o'tganiyu, Unsinni qanday jazolash haqida muayyan farazlar paydo bo'lishi mumkin. "Zaifa" xotinlari oldida Dodhoni mulzam qilgan kenja xotinidan o'ch olish rejasi ushbu farazlarning haqiqatga yaqinrog'i deb qarashga asoslar yetarli. Sabab: 1) Unsin yosh bo'lishiga qaramay chindan jasoratli ayol edi. Hikoyada uning jasorati ochiq tasvirlanmasa-da, hatta -harakatlari, katta -kichik detallar, Nodirmohbegim so'zlab bergan rivoyatdagi yigit obraziga paralel tasvirlar orqali ochiqqlanadi. Demak, Dodho Unsinning shartni bajarib, sog'salomat qaytib kelishini taxmin qilgan; 2) Unig shartni bajarib, Garjiravonga qaytib ketishi Dodho sha'niga to'g'ri kelmaydi, u Unsinning tirik qaytishidan manfaatdor ham emas. Agar Unsin tirik qaytsa Dodhoning obro'si xotinlari, el yurt, tanish bilishlari oldida yer bilan bitta bo'ladi va tabiiyki Dodho garovda g'olib bo'lishi uchun barcha imkoniyatlarini ishga soladi.

Ma'lumki, qo'rquv psixologik jarayon, u xususiyatlari bilan tana a'zolariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va hatto inson umriga nuqta qo'yishi ham mumkin. Oqshom, go'riston, Dodho qo'ygan shart, har balolarning ko'zga ko'rinishi... bularning barchasi Unsinning dahshati va uning ortidagi fojia-o'limiga yetarlicha sabablar sifatida ko'rsatish mumkin. Ammo Unsin "kattakon bir sag'ananing ichidanmi, naryog'idanmi allaqanaqa bir tovush" ni eshitib, yelkasiga nimadur minib olib, uni bo'g'moqchi bo'lib qo'l uzatganini his qilgandan keyin, *ko'kragiga nihoyatda og'ir bir narsa bilan urilganday ko'ngli ozib tentirab*, hushidan ketdi. Dahshatning bu kulminatsion nuqtasiga qadar u qabriston qo'rquvi ta'siridagi salbiy tuyg'ulardan xalos bo'lishga harakat qilib, qumg'onda choyni qaynatib bo'lgan edi. Ya'ni,

maymun Unsin o'limiga sababchi eng muhim va birlamchi faktor vazifasini bajardi. Hikoyada maymunni Dodho yuborgani haqidagi ma'lumot esa faqat Unsinning quyidagi nutqi orqaligina ochiqdigan. *"Unsin qo'rquvdan telba bir ahvolda bo'lsa ham fahmladi: maymun! Dodhoning maymuni! Maymunni dodhoning o'zi olib kelmagandir, birovdan berib yuborgan! Dunyoda dodhoday berahm odam yana bor ekanmi! Unsin yelkasiga maymun mingan daqiqada naqadar qo'rqan bo'lsa, hozir shu qadar tinchidi, xotirjam bo'ldi: demak, qandoq berahm bo'lsa ham shu atrofda odam bor!"*

Ikki og'iz maymun obrazi xususida:

Maymun obrazi muayyan xalqlar dini, e'tiqodi, madaniyati, urf odatlari, qadriyatlariga ko'ra turli xil ko'rinishlarda aks ettirilgan. Masalan, qadimgi Afrika xalqlari adabiyotida aql va zakovat ramzi sifatida tasvirlansa, Osiyo madaniyatida boylik ramzi bo'lib xizmat qilgan. Lekin XIX-XX G'arb xalqlari gotik [Gotik-qo'rqinchi sujetga ega asarlar-ZM] asarlarda maymun salbiy, fojealarga sababchi maxluqot sifatida gavdalangan. Masalan, Edgar Elan Poning mashxur "Ru Morgu ko'chasi qotillik" hikoyasida ham sirli qotil maymun bo'lib chiqadi. Yoki Gyotening mashxur "Faust" asaridagi shaytonning malaylari ham maymun obrzaida akslangan [3;536]. Dankle Harvey (inglizcha Harvey Dunkle) ning yozishicha, Yevropadagi tasviriy san'at namunalarda maymun olma (ayrim manbalarda xurmo, bug'doy tarzida talqin qilingan) tishlab turgan qiyofada tasvirlanadi. Bunday tasvirlar, diniy e'tiqodlarga ko'ra, "maymun Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvulishiga sabab bo'lgan hayvon" qabilida talqin qilinadi [3;536].

Arab manbalarida qayd qilinishicha, Abbosiylar xalifaligida maymunlar uy hayvoni sifatida xonadonlarda boqilgan. Maymunlar noyob hayvonlar qatorida arablarning boylik ramzi bo'lgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qo'qonda ham maymun boylik ramzi sifatida boy, mansabdor, obro'li shaxslar xonadonida maxsus boqilgani, Qo'qonda istiqomat qiluvchi mansabdorlar, boylar Hindiston va Xitoyga boriladigan karvonboshilardan maymunlar xarid qilgani yoki Hindistonga maxsus borib maymun olib kelganliklari haqida qarashlar mavjud. Balki O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi bilan ushbu an'ana ham o'lkada urfga aylangan bo'lishi mumkin. Bizda bu fikrlarning qay biri haqiqatga yaqinligini tasdiqlovchi yozma dalillar mavjud bo'lmasada, Qahhor o'tkir realist sifatida maymun obrazini hikoyaga olib kirishida muayyan mantiqiy asosga tayangani aniq. Holbuki, maymun tashqi qiyofasi, biologik xususiyatlari, hatti-harakatlari nuqtai nazaridan dahshatli voqealar akslangan asarlar estetikasiga mos. Demak, Abdulla Qahhor, "Dahshat" ga maymun obrazini tasodif olib

kirmagan. Obrazni shakllantirishda yuqoridagi ma'lumotlar ham muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Shu o'rinda kitobxonda savol tug'iladi: "agar Dodho Unsin ortidan maymunni yubormaganda, Unsin Dodho aytgan shartni bajarib, ozodlikka chiqishi mumkin edi(mi)? Unsinning fojeasiga Dodho daxl qilmaydi yoki Dodho aybdor emas deyishimizda mantiq bormi!?"

Abdulla Qahhor hikoyalarining yechimi o'ziga xos uslubda yakun topadi. Asarlariga olib kirilgan har bir katta kichik obrazlarga jiddiy vazifalar yuklaydi va ular o'z mantig'i doirasida harakatlanadi, kitobxonlarni o'z hatti harakatlari bilan ishontiradi. Kitobxon bir asrdan keyingi talqinlarda ham Qahhor yaratgan obrazlarga, estetik ideallarga qarshi borolmaydi, ularni boshqa o'zanga burolmaydi, goyaviy konsepsiyasiga qarshi qo'yishning ham imkoni yo'q. Masalan, Unsinning o'limida Dodhoni ayblamaslik uchun muayyan sabablar topsakda uni oqlashga jur'at qilolmaymiz. Chunki muallif Dodhoni uning maymuni vositasida eng og'ir jonyatchi- qotilga aylantirgan va kitobxonda uni oqlashga hech qanday imkoniyat qoldirmagan. Balki chindan ham agar Dodho maymunni Unsin ketidan yubormaganda va uning ruhiyatidagi qo'rquvni katalizatoriga aylantimaganida Dodhoni oqlash haqida o'ylab ko'rish mumkin bo'lardi, balki. Ayni o'rinda Dodhoga doir yana boshqa muhim masala ham bor. Aytaylik, Unsin shartni bajarib qaytib keldi va to'rva xaltasini olib Ganjiravonga jo'nab ketdi...Uning ozodlikka chiqishidan Olimxon manfaatdor emasligi, bu voqea uning g'ururi, sha'nini battar loyga botirishini kitobxon yaxshi biladi va Dodho nima qilib bo'lsa ham Unsinni uyga tirik qaytarmaslik chorasini ko'rishi ham o'quvchida mavjud farazlardan biri edi, chunki inson tabiatida "yutqizish" emas balki "yutish" ga intilish kuchli. Bunday tuyg'u Dodho kabi hudbin shaxslarda ikki karra ko'p namoyon bo'ladi.

Demak, Abdulla Qahhor yaratgan hikoyalar o'tmish voqealarini mohirlik bilan umumlashtirib, ularni tarixga muxrladi va har bir davr uchun manba bo'ladigan katta adabiyotni me'ros qoldirdi.

Yozuvchi hikoyalarini turli rakurslarda, yangi nazariyalar, xususan "kitobxon javobi" nazariyasi asosida tahlil qilish, uning yangi, ochilmagan qirralarini kashf qilish adabiyotshunoslik, ilmiy jamoatchilik uchun ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dunkle H. Monkey Business in Goethe's Faust, Die Wahlverwandtschaften, and Science." Goethe Yearbook, vol. 4, 1988, p. 123.



2. Gyote Y. Faust. Toshkent. Yangi asr avlodi, 536 b.
3. Мелиев С. Ижтимоий ғоя зуғуми ёхуд меҳрнинг бадий кучи. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1995, 23 июнь.
4. Mirzayeva Z. “Dahshat” “kitobxon javobi” tajribasida. (1-maqola). “O‘zbek filologiyasi: muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. Toshkent, 2024, 17-aprel, 172-176-betlar.
5. Mirzayeva Z., Jalilov K. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Toshkent, Akademik Space, 2024.
6. Расулов А. Бадийлик безавол янгилик. Тошкент, Шарқ, 2007. – 97 б
7. Wolfgang I The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response. John Hopkins U P, Baltimore. 1978
8. А.Н. Ковылкин. Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки // Омский научный вестник, № 2 (54) 2007, стр. 153.
9. Qahhor A. Dahshat. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-dahshat-hikoya>
- 10.
11. Qahhor A. Dahshat. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-dahshat-hikoya>